

Zamonaviy traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalari haqida ma'ruza

6 aprel kuni Traktorlar va avtomobillar kafedrasida tomonidan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalariga Uzclaasservis korxonasi mutaxassisleri Babayev X. va Boshlavov A. ishtirokida "Claas kompaniyasi traktorlari va qishloq xo'jalik mashinalari" mavzusida ma'ruza tashkil qilindi.

Ma'ruzada Claas kompaniyasining O'zbekistonda ishlatilayotgan traktorlari va kombaynlarining tuzilishi va ishlashidagi o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar berildi. Shuningdek, korxonada faoliyati va u yerda talabalar amaliyotlarini tashkil qilish bilan bog'liq masalalarga to'xtalib o'tildi. Ma'ruzada Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakultetining yosh o'qituvchilari ham ishtirok etishdi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.



Traktorlar va avtomobillar kafedrasida mudiri Amonov M.O. axboroti